

---

## Hisobot topshiruvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar diqqatiga!

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etiladigan 2022-yil yakunlari bo'yicha "1-kb" yillik statistika hisobotini topshiruvchi kichik tadbirkorlik subyektlari (xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar)ga hisobot topshirishda uslubiy yordam berish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan on-line muloqotlar tashkil etilmoqda.

□ On-line muloqotlarda "1- kb" shakli hisobotining har bir bo'limi, undagi ko'rsatkichlar bo'yicha savollarga javob beriladi.

□ On-line muloqotlar "STATISTIKA" ([https://t.me/statistika\\_rasmiy](https://t.me/statistika_rasmiy)) telegram kanalida (havola [https://t.me/statistika\\_rasmiy](https://t.me/statistika_rasmiy)) 2023-yilning 16-yanvaridan 27-fevral kuniga qadar haftaning dushanba, chorshanba va juma kunlari soat 15:00 dan 18:00 ga qadar tashkil etiladi.

□ Eslatib o'tamiz, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun "1- kb" yillik statistika hisobotini topshirish muddati 2023-yilning 27-fevralda yakunlanadi.

□ On-line muloqotlarda faol ishtirok eting!

2023-01-12 17:13:05